



IMPROVING SERVICE CULTURE STANDARDS AS A BASIS FOR ENHANCING THE MORAL CHARACTER OF CIVIL SERVANTS

Mahbuba Sottorovna Xoliyarova

Senior Lecturer

Law Enforcement Academy

m.kholiyarova@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: service culture, civil servant, moral character, service ethics, social contract, integrity vaccine.

Received: 13.06.26

Accepted: 14.06.26

Published: 15.06.26

Abstract: This article analyzes the philosophical and practical foundations of improving service culture standards in the activities of civil servants. The ontological, epistemological, axiological, and sociocultural dimensions of service culture are examined through a comparative analysis of Eastern and Western philosophical traditions. The study also highlights international experiences in developing service culture, ongoing reforms in Uzbekistan, and their significance in enhancing the moral character of civil servants. As a result of the research, a model for evaluating service culture based on the “Social Contract Index” is proposed.

XIZMAT MADANIYATI STANDARTLARINING TAKOMILLASHTIRILISHI – DAVLAT XIZMATCHISI MA’NAVIY QIYOFASINI YUKSALTIRISH ASOSI

Mahbuba Sottorovna Xoliyarova

Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi

Katta o‘qituvchisi

m.kholiyarova@mail.ru

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: xizmat madaniyati, davlat xizmatchisi, ma’naviy qiyofa, xizmat etikasi, ijtimoiy shartnoma, halollik vaksinasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat xizmatchilari faoliyatida xizmat madaniyati standartlarini takomillashtirishning falsafiy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Xizmat

madaniyatining ontologik, gnoseologik, aksiologik hamda sotsiomadaniy jihatlarini Sharq va G'arb falsafasi asosida qiyosiy o'rganilgan. Shuningdek, xizmat madaniyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda davlat xizmatchilarining ma'naviy qiyofasini yuksaltirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijasida xizmat madaniyatini baholashning "ijtimoiy shartnoma indeksi" modeli taklif etilgan.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТАНДАРТОВ СЛУЖЕБНОЙ КУЛЬТУРЫ КАК ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО ОБЛИКА ГОСУДАРСТВЕННОГО СЛУЖАЩЕГО

Махбуба Сатторовна Холиярова
Старший преподаватель
Академии правоохранительных органов
m.kholiyarova@mail.ru
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: служебная культура, государственный служащий, духовно-нравственный облик, служебная этика, общественный договор, вакцина честности.

Аннотация: В данной статье анализируются философские и практические основы совершенствования стандартов служебной культуры в деятельности государственных служащих. Онтологические, гносеологические, аксиологические и социокультурные аспекты служебной культуры рассматриваются в сравнительном контексте восточной и западной философской мысли. Кроме того, освещаются зарубежный опыт развития служебной культуры, проводимые в Узбекистане реформы, а также их значение для повышения духовно-нравственного облика государственных служащих. В результате исследования предложена модель оценки служебной культуры на основе «индекса общественного договора».

Kirish. Yangi O'zbekiston sharoitida davlat xizmatlari samaradorligini oshirish va davlat organlariga nisbatan fuqarolar ishonchini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda davlat xizmatchilarining ma'naviy qiyofasi, xizmat etikasi va kasbiy

madaniyati muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Xizmat madaniyati davlat xizmatchisi faoliyatidagi axloqiy, huquqiy va ijtimoiy me'yorlarning uyg'unligini ifodalaydi. U davlat boshqaruvining samaradorligi, fuqarolarning davlat tizimiga bo'lgan ishonchi hamda jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli xizmat madaniyati standartlarini takomillashtirish davlat xizmatchilarining ma'naviy qiyofasini yuksaltirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Adabiyotlar va manbalar tahlili. Tadqiqotda Aristotel, Forobiy, Ibn Sino, Kant, Veber, Habermas kabi mutafakkirlarning nazariy qarashlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi 28.01.2021, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimidagi nutqi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro tajribalar tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. davomida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi: xizmat madaniyati standartlarining takomillashtirilishi – davlat xizmatchisi ma'naviy qiyofasini yuksaltirish asosi falsafiy tahlil qilindi, xorij tajribasi xizmat madaniyati qiyosiy tahlil 'nbklb, Sharq va G'arb falsafasi qiyosiy tahlili; xorijiy tajribalarni o'rganish orqali tadqiq qilindi.

Tahlil va natijalar. Shaxsiy fazilatlar davlat xizmatchisi faoliyatida halollik, adolat, mas'uliyat, insof, sabr-toqat, insonparvarlik kabi fazilatlar asosiy ma'naviy poydevor hisoblanadi. Axloqiy me'yorlar sifatida esa davlat xizmatchilarining xizmat etikasi, xushmuomalalik, neytrallik, adolat, fuqarolarga hurmat, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish tamoyillariga asoslanishi lozim. Davlat xizmatining huquqiy asoslari esa qonunchilik, xizmat reglamentlari, odob-axloq qoidalari, davlat standartlari orqali tartibga solinadi.

Falsafiy yondashuvga ko'ra, xizmat madaniyati nafaqat xizmat ko'rsatish uslublari yoki odob-axloq qoidalari to'plami, shuningdek insonning ma'naviy dunyosi bilan davlat boshqaruvi jarayonining o'zaro aloqasini aks ettiruvchi tizimdir. Ushbu jarayonni quyidagicha tavsiflash joiz:

Birinchidan, xizmat madaniyatining mazmun mohiyati axloq falsafasidagi «etika» tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Arastuning "eudaimonia" (barkamol hayot) g'oyasida ta'kidlanishicha, insonning vazifasi nafaqat tashqi majburiyatlarni bajarish, shu bilan birga ichki fazilatlar bilan jamiyatga yaxshilik olib kirishdir. Davlat xizmatchisi uchun xizmat madaniyati adolat, mas'uliyat va insof kabi umuminsoniy qadriyatlarni kasbiy me'yorlarga tatbiq etish bilan izohlanadi.

Ikkinchidan, xizmat madaniyati huquq falsafasi yondashuviga ko'ra, fuqarolar va davlat o'rtasidagi ishonch munosabatini mustahkamlaydigan ma'naviy poydevor hisoblanadi. Immanuel

Kantning «kategorik imperativ» g'oyasiga asosan, xizmatchi o'z faoliyatida qonun qoidalarga nafaqat tashqi nazorat tufayli, balki ichki burch hissi bilan rioya qilishi kerak.

Uchinchidan, xizmat madaniyati ijtimoiy falsafa mazmunida jamiyatning ijtimoiy kapitali va davlat idoralarning legitimligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omildir. Buning ma'nosi shundaki, agar xizmat madaniyati yuksak darajada bo'lsa, davlat xizmatchilari fuqarolar ko'z o'ngida "hokimiyat va xalq o'rtasidagi ko'priq" vazifasini bajara oladi [1]

Demak, falsafiy tahlilda xizmat madaniyati – bu shaxsiy fazilatlar, axloqiy me'yorlar va davlat xizmati qoidalarining uyg'unligidir. Ushbu uyg'unlikni Sharq va G'arb falsafasi asosida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Shaxsiy fazilatlar xizmat madaniyatining asosiy poydevori hisoblanadi. Halollik, adolat, insof, mas'uliyat, mehr-shafqat, sabr-toqat kabi fazilatlar xizmatchining ichki mohiyatini belgilaydi va faoliyatiga ma'naviy yo'nalish beradi. Sharq falsafasida, xususan, jahon sivilizatsiyasi rivojiga hissa qo'shgan sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiy davlat arbobining yuksak xislatlarga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi: "Fozil hokim ilm, adolat, jamiyat farovonligi va ruhiy poklikni mukammal tarzda o'zlashtirgan bo'lishi kerak. U xalq uchun jonkuyar, axloqiy jihatdan yetilgan, ziyarak inson bo'lishi lozim"[2]. Forobiyning «fozil inson» konsepsiyasida rahbar yoki xizmatchi jamiyat uchun ma'naviy namuna bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi. G'arb falsafasida esa, Aristotelning "ahloqiy fazilatlar" ta'limoti xizmatchining shaxsiy xarakterini axloq asosida shakllantirishni ustuvor qiladi.

Sharq va G'arb falsafasida xizmat madaniyatining uyg'unlik tamoyili turlicha ifoda etilgan bo'lsa-da, unda mushtarak maqsad mujassam. U ham bo'lsa, xizmatchining shaxsiy fazilatlarini, axloqiy me'yorlari va rasmiy qoidalari uyg'un holda amal qilishidir. Sharq falsafiy ta'limotida ma'naviy kamolot va insoniy fazilatlar ustuvor deb tan olingan bo'lsa, qoidalar ma'naviyatni amalga oshirish vositasi sifatida talqin qilinadi. G'arb falsafiy tafakkurida qonun va reglament ustuvor bo'lsa, shaxsiy va axloqiy fazilatlar tizim samaradorligini ta'minlaydigan yordamchi omil sifatida e'tirof etiladi. Albatta, bu qiyosiy tahlil xizmat madaniyati standartlarini takomillashtirishda Sharqning ma'naviy asoslari bilan G'arbnig institutsional mexanizmlarini uyg'un qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, zamonaviy ilmda va amaliy faoliyatda "standart" tushunchasi keng doirada qo'llaniladi. Mazkur tushuncha bir tomondan, texnik me'yor yoki o'lchov sifatida, ikkinchi tomondan ma'naviy-axloqiy, estetik va ijtimoiy normalar tizimini ifodalovchi kategoriya sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafiy nuqtai nazardan standart reallikning muayyan qismiga nisbatan jamiyat tomonidan qabul qilingan va amalga tatbiq etiladigan etalon, o'lchov yoki namuna hisoblanadi.

Falsafada standartning ontologik mohiyati shundaki, u borliqdagi narsa va hodisalarning me'yoriy holati sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, jismoniy yoki ma'naviy voqelikning tuzilishida muayyan tartib, moslik va takrorlanuvchanlikni ta'minlaydi.

Gnoseologik nuqtai nazaridan, standart insonning bilish jarayonida qiyoslash imkonini beruvchi mezondir. Ilmiy tadqiqotlarda standartlar orqali tajribalar takrorlanadi, natijalar solishtiriladi va bilimlar umumlashtiriladi. Mazkur jihatdan standart empirik bilimning universal tartibga solingan shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Axloq, estetika va huquq falsafasida standartlar qadriyatlar tizimining amaliy ifodasi sifatida tadqiq etiladi. Chunki axloqiy standartlar orqali jamiyat "yaxshi" va "yomon"ni, estetik standartlar natijasida "go'zal" va "uqubatli"ni ajrata oladi. Jumladan, xizmat madaniyati standarti nafaqat texnik talablarni, shu bilan birga insoniy muomala va etika mezonlarini ham qamrab oladi.

Ta'kidlash joizki, standartlar jamiyatning madaniy-tarixiy mazmunidan kelib chiqadi. Sotsial konstruktivizm nuqtai nazaridan tahlil qilganda, standartlar obyektiv reallikning emas, balki ijtimoiy kelishuv va amaliyotning mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun ham turli madaniyatlarda bir xil sohadagi standartlar turlicha shakllanadi.

Standart jamiyatning ma'naviy, madaniy va ilmiy taraqqiyotida tartib, qiyos va kelishuvni ta'minlovchi me'yoriy-baholovchi falsafiy kategoriyadir. U bilim, ijtimoiy munosabatlar va madaniy an'analarni barqarorlashtiradi.

Xizmat madaniyati standartlari, birinchidan, jamiyatda xizmat ko'rsatish jarayonlarini tartibga soluvchi, ikkinchidan shaxslararo munosabatlarda madaniy me'yorlarni belgilab beruvchi tizim hisoblanadi. Ular nafaqat texnik reglamentlar yoki qoidalar, shuningdek jamiyatning ma'naviy qiyofasi, axloqiy qadriyatlari va madaniy an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, davlat xizmatchilari uchun xizmat madaniyati standartlari fuqarolar ishonchi va davlat boshqaruvi samaradorligining eng asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Quyida davlat xizmati madaniyati standartlarini ontologik, gnoseologik, aksiologik, sotsiomadaniy yondashuvlar asosida xorij davlatlari tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilish orqali tadqiq etiladi.

Falsafiy ontologiya nuqtai nazaridan tahlil qilganda, xizmat madaniyati standartlari inson faoliyatidagi munosabatlar va harakatlarni tartibga soluvchi, barqaror me'yoriy tuzilma hisoblanadi. Ularning real hayotda namoyon bo'lishi quyidagilarda o'z aksini topadi:

davlat idoralarida fuqarolarning murojaatini qabul qilish jarayonida adolat va shaffoflikni ta'minlashda;

fuqaro bilan bevosita muloqot jarayonida hurmat va samimiylikka rioya etishda.

Jumladan, Yaponiya davlatida «National Public Service Ethics Program» («Milliy davlat xizmati axloq kodeksi)ga ko‘ra, davlat idoralarida xizmat madaniyatining asosiy ontologik belgilaridan biri xizmatchilarning vaqtga qat’iy rioya qilishi, shuningdek fuqaroga ortiqcha byurokratik to‘siqlar yaratmaslikka qaratilgandir. Ontologik yondashuvga ko‘ra, xizmat madaniyati standartlarini takomillashtirish bu borliqdagi me’yoriy tuzilmalarning rivojlanishi va yangi voqelikka moslashishi jarayonidir. Uning ma’nosi shundaki, yangi texnologiyalar xizmat ko‘rsatish muhitini qayta shakllantiradi. Shu bilan birga muloqot madaniyati an’anaviy shakldan raqamli platformalarga ko‘chadi. M.Veber o‘z falsafiy qarashlarida xizmat madaniyatining takomillashuvini «ratsional boshqaruv» tamoyili bilan bevosita bog‘laydi. M.Veber davlat xizmatchisini ratsional-huquqiy asosdagi “kasbiy byurokrat”[3] deb talqin qiladi. Uning “Xo‘jalik va jamiyat” asarida xizmatchilar xarizmatik (shaxsiy liderlik qobiliyatiga ega), an’anaviy (urf-odatlariga asoslangan itoat tizimining bir qismi) va ratsional-huquqiy (qonunga asoslangan, malakaga ega professional kadrlar.) kabi turlarga ajratiladi. Bunda e’tibor, asosan, xizmatchining qonun ustuvorligiga rioya qilishi va xizmat tayyorgarligiga qaratiladi Unga ko‘ra, me’yorlar zamonaviy ijtimoiy va texnologik shart-sharoitlarga muvofiqlashtirilishi lozim.

O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan davlat xizmatlari standartlarini takomillashtirish islohotlari nafaqat tashkiliy-huquqiy, shuningdek falsafiy jihatdan insonparvarlik, adolat va xalq ishonchi tamoyillariga asoslangan. Jumladan, O‘zbekistonda «Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali» (my.gov.uz) joriy etilishi xizmat madaniyatining ontologik tuzilishini o‘zgartirdi. Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi lozimligi tamoyili xizmat madaniyati standartlarining yangilanishiga asos bo‘ldi. 2017-yilda “Xalq qabulxonalari” orqali davlat xizmatchilari fuqarolar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilib, ularning ishonchini mustahkamlab kelmoqda. Endilikda davlat xizmatchisi fuqarolarni raqam yoki statistik birlik sifatida emas, balki individual ehtiyojlarga ega shaxs sifatida qabul qiladi.

Gnoseologik yondashuvga ko‘ra, xizmat madaniyati standartlari tajriba va bilimlar asosida shakllangan, baholash va qiyoslash imkonini beradigan kasbiy etalonlardir. Bunda bilim xizmat ko‘rsatish etikasi, psixologiya va kommunikativ ko‘nikmalar orqali shakllansa, tajriba fuqarolar bilan muloqotda, ko‘p yillik amaliy ish jarayonida mustahkamlanib boradi. Jumladan, Germaniyada davlat xizmatchilari uchun maxsus tayyorgarlik kurslari «Beamtenausbildung» tashkil qilinadi. Unda xizmat madaniyati bo‘yicha modullar majburiy tartibda o‘qitiladi. Shuningdek, fuqarolar bilan ishlash protokollari ilmiy asosda o‘rgatiladi. Gnoseologiya nuqtai nazaridan, xizmat madaniyati standartlarini takomillashtirish bu bilim va tajriba bazasini yangilash

va ularni amaliyotga tatbiq etish bilan belgilanadi. Bunda ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tajribaga asoslangan uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqiladi. Shu bilan birgalikda davlat xizmatchilari malaka oshirish kurslarida zamonaviy xizmat etikasi va muloqot psixologiyasi o‘qitiladi. Faylasuf Yu.Habermas ta’kidlashicha, xizmat madaniyatining takomillashuvi fuqaro bilan davlat o‘rtasida “munosabatlar shaffofligi va o‘zaro ishonch”ni ta’minlaydigan kommunikativ amaliyotdir. Jumladan, Singapurda “Public Service Excellence Framework”[4] har ikki yilda qayta ko‘rib chiqiladi, shuningdek u zamon talablariga mos fuqaro ehtiyojlariga moslashtiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligida xizmat madaniyati bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari joriy etildi. Axloq falsafasiga ko‘ra, xizmat madaniyati standartlari qadriyatlar tizimining amaliy ifodasi sifatida tadqiq qilinadi. Bunda axloqiy qadriyatlar halollik, adolat, mas’uliyat, shaffoflik hisoblansa, estetik qadriyatlar xizmat muhitining tozaligi, muomala madaniyati, yuksak nutq madaniyatini o‘zida mujassam etadi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasining “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son Qarori [5] ga asosan, davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari bo‘yicha ko‘rsatmalarda davlat xizmatchisi fuqaro bilan muloqotda neytral, xushmuomala va manfaatsiz bo‘lishi zarurligi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Axloqiy yondashuvga ko‘ra, xizmat madaniyati standartlarini takomillashtirish bu universal qadriyatlar tizimini (adolat, shaffoflik, tenglik, mas’uliyat) muntazam ravishda qayta baholash, shuningdek uni zamon talablariga moslashtirishdan iboratdir. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni 17-moddasida davlat xizmatchisining xizmat madaniyatida “odob-axloq qoidalari, qonunga sodiqlik va xizmat intizomi”[6] ustuvor mezon sifatida belgilangan. Immanuel Kantning “kategorik imperativ” nazariyasi[7]ga ko‘ra, xizmat madaniyatining takomillashuvi bu universal axloqiy qoidalarni amaliy hayotga tatbiq etishni bildiradi. Yaponiyada “Omotenashi” xizmat madaniyati konsepsiyasiga ko‘ra, davlat xizmatchilari fuqaroning ehtiyojini oldindan his etishga o‘rgatiladi, bu ularning ma’naviy qiyofasini yuksaltiradi.

Sotsiomadaniy o‘lchamga ko‘ra, xizmat madaniyati standartlari ijtimoiy kelishuv va madaniy amaliyotning mahsuli hisoblanadi. Ular, albatta, milliy mentalitet, tarixiy tajriba va qonunchilik bilan o‘zaro uyg‘un holda shakllanadi. Jumladan, Sharq mamlakatlari Yaponiya, Janubiy Koreyada xizmat madaniyatida ehtiyojni oldindan his etish va fuqaroning ichki qoniqishini ta’minlash ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Yevropa mamlakatlari Shvesiya, Kanadada tenglik, erkin muloqot va xizmatda demokratik munosabatlarga e’tibor kuchlidir.

Kanadada davlat xizmatchilari uchun qabul qilingan “Values and Ethics Code”[8] xizmat madaniyatini milliy qadriyatlar, adolat, inson huquqlariga hurmat va inklyuzivlik bilan bog‘laydi. Sotsial konstruktivizm nuqtai nazaridan tahlil qilganda, xizmat madaniyati standartlari milliy madaniy an’analar, mentalitet va ijtimoiy munosabatlar tizimida takomillashib boradi. Bunda milliy xususiyatlar hisobga olingan holda, global standartlarga moslashtiriladi. Jumladan, Shvesiyada “Person-Centered Approach” standarti orqali xizmat fuqaro ehtiyojlariga yo‘naltirilib boriladi.

Yaponiya – “Omotenashi” xizmat madaniyati;

Germaniya – “Beamtenausbildung” o‘quv tizimi;

Singapur – “Public Service Excellence Framework”;

Kanada – “Values and Ethics Code”.

Yangi O‘zbekiston sharoitida “Inson qadri uchun” tamoyiliga mos tarzda xizmat madaniyati qayta ko‘rib chiqilmoqda va takomillashtirilmoqda. Bu kommunitar burch va jamoaviy mas‘uliyatni mustahkamlashga qaratilgan islohot bo‘lib, unda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va ochiq ma‘lumotlar portalini yaratish muhim vazifalardan sifatida belgilandi. Falsafiy nuqtai nazardan, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, kommunitar falsafa shaxsning faoliyatini jamoa manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Ta’kidlash joizki, jamoatchilik ishtirokini ta’minlash xizmat madaniyatini bir yo‘nalishli emas, ikki tomonlama jarayonga aylantiradi. Bunda davlat fuqaroga xizmat qiladi, fuqaro esa, davlatni rivojlantirishda faol ishtirok etadi.

Shu o‘rinda davlat xizmati madaniyati standartlarida cheklovlar ham bo‘lishi mumkin.

Birinchidan, formalizm xavfi paydo bo‘lishi, ya’ni belgilangan qoidalarga ortiqcha bog‘lanib qolish insonparvarlik va vaziyatga moslashuvchanlikni kamaytirishga olib keladi.

Ikkinchidan, relyativizm masalasi bo‘lib, bunda bir davlatda yuqori hisoblangan xizmat madaniyati standarti boshqa bir davlat uchun mutlaq qiymatga ega bo‘lmasligi mumkin.

Uchinchidan, texnologik determinizm ta’siri bo‘lib, u raqamli xizmatlar rivojlanishi bilan insonlararo samimiy muloqotni kamaytirish ehtimoli mavjud.

Xizmat madaniyati standartlari davlat boshqaruvida fuqarolar ishonchi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim falsafiy-me’yoriy kategoriya hisoblanadi. Mazkur standartlar orqali jamiyat axloqiy me’yorlarni amalda qo‘llaydi, fuqaro va davlat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Shuni ta’kidlash joizki, ular hamisha zamon talablari, ehtiyojlari, shuningdek madaniy o‘zgarishlar bilan uyg‘un holda rivojlanib borishi zarur.

Xizmat madaniyati standartlarini takomillashtirish davr talabidir. Buning ma'nosi shundaki, jamiyatda xizmat ko'rsatish jarayonlarining samaradorligi, shaffofligi va insonparvarligini ta'minlovchi tizimni doimiy rivojlantirishga qaratilgandir. U faqat texnik yoki reglamentlar majmuasi emas. Shuningdek, axloqiy qadriyatlar va fuqaro bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarni ifoda etuvchi falsafiy kategoriya sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Davlat xizmatchilari fuqarolarning ishonchini qozonish uchun, avvalo, odob-axloq madaniyati va xizmat ko'rsatish etikasiga amal qilishlari shart" [9]

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Sharq va G'arb falsafasi xizmat madaniyatiga turlicha yondashadi. Sharq falsafasida ma'naviy kamolot va insoniy fazilatlar ustuvor ahamiyatga ega. Forobiy va Ibn Sino ta'limotlarida xizmatchining ichki axloqiy fazilatlari davlat boshqaruvining asosiy omili sifatida talqin qilinadi.

G'arb falsafasida esa qonun, reglament va institutsional mexanizmlar ustuvor hisoblanadi. Kantning kategorik imperativ nazariyasi va Veberning byurokratiya konsepsiyasi davlat xizmatini tartibga solishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Shuningdek, xorij tajribasi xizmat madaniyati standartlarini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi:

O'zbekistonda esa "Inson qadri uchun" tamoyili asosida davlat xizmatlari tizimini takomillashtirish bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa va takliflar:

1. Xizmat madaniyati davlat xizmatchisining ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi
2. Xizmat madaniyati standartlarini takomillashtirish davlat va fuqarolar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.
3. Xizmat madaniyati standartlarini rivojlantirishda axloqiy qadriyatlar va zamonaviy institutsional mexanizmlar uyg'unligi ta'minlanishi lozim.
4. Davlat xizmatchilari faoliyatini baholash uchun "ijtimoiy shartnoma indeksi"ni joriy etish maqsadga muvofiq.
5. Xizmat madaniyati standartlarini takomillashtirish ma'muriy emas, balki ma'naviy islohot sifatida qaralishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хайдаров А.Ф. Илмий билим ва стандартлаш жараёнлари. // Фалсафа ва ҳуқук. – 2022. – №4. – Б. 45–53.

2. Фаробий А.Н. Таълимул аҳл ал-мадина ал-фозила // Фозил шаҳар аҳлининг қарашлари. — Тошкент: Фан, 1993. — Б. 51
3. Вебер М. Хозяйство и общество: очерки понимающей социологии / М. Вебер ; пер. с нем. и коммент. Ю.Н. Давыдова, А.Ф. Филиппова ; под ред. А.Ф. Филиппова. — М. : Логос, 2001. — 1351 с.
4. Public Service Excellence Framework. – Singapore: Civil Service College, 2022. – 36 p
5. ЎзР Вазирлар Маҳкамасининг “Давлат фуқаролик хизматчилари томонидан одоб-ахлоқ қоидаларига риоя этилишини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори <https://lex.uz/docs/6236838>
6. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги Қонуни, 2022 йил 8 август, №ЎРҚ-788. – <https://lex.uz/uz/docs/6145972?ONDATE=21.09.2024>
7. Кант И. Критика практического разума. – М.: Мысль, 1994. –С.247.
8. Values and Ethics Code for the Public Sector. – Ottawa: Treasury Board of Canada Secretariat, 2012. – 28 p.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 28.01.2021. – URL: <https://president.uz> (мурожаат қилинган сана: 10.08.2025).